



“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026

THE IMPORTANCE OF MRI IN THE RADIATION DIAGNOSIS OF OVARIAN CANCER

Olomov Sardorbek Shukhratjon ugli

Master’s Student, Tashkent State Medical University, Uzbekistan

Abstract

Ovarian cancer is one of the most serious malignant diseases of the female reproductive system. Due to the absence of specific symptoms in the early stages, the disease is often diagnosed late. This study evaluates the diagnostic capabilities of magnetic resonance imaging (MRI) in the differential diagnosis of ovarian tumors. A retrospective analysis demonstrated that MRI provides valuable information regarding tumor morphology, extent of spread, and signs of malignancy. The findings confirm the important role of MRI in the early detection of ovarian cancer and in selecting appropriate treatment strategies.

Keywords:

ovarian cancer, magnetic resonance imaging, radiation diagnosis, differential diagnosis, CA-125 tumor marker, signs of malignancy.

TUXUMDON SARATONI NUR TASHXISIDA MRT NING AHAMIYATI

Olomov Sardorbek Shuxratjon o‘g‘li

Toshkent davlat tibbiyot universiteti magistratura talabasi, O‘zbekiston

Annotatsiya. Tuxumdon saratoni ayollar reproduktiv tizimining eng xavfli onkologik kasalliklaridan biri hisoblanadi. Kasallikning dastlabki bosqichlari ko‘pincha klinik belgilar bilan namoyon bo‘lmagani sababli bemorlarga kech tashxis qo‘yiladi. Mazkur tadqiqotda tuxumdon o‘smalarini differensial tashxislashda magnit-rezonans tomografiyaning (MRT) diagnostik imkoniyatlari baholandi. Retrospektiv tahlil natijalari MRTning o‘smaning morfologik tuzilishi, tarqalish darajasi va malignlik



“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026

belgilarini aniqlashda yuqori informativlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Olingan natijalar MRT tekshiruvining tuxumdon saratonini erta aniqlash va davolash taktikasini tanlashdagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: tuxumdon saratoni, magnit-rezonans tomografiya, nur tashxisi, differensial diagnostika, CA-125 onkomarkeri, malignlik belgilari.

Dolzarliligi: Tuxumdon saratoni ayollar onkoginekologiyasidagi eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Kasallikning dastlabki bosqichlarida klinik simptomlarning kamligi yoki umuman bo‘lmasligi uning kech aniqlanishiga sabab bo‘ladi. Natijada bemorlarning katta qismida kasallik rivojlangan bosqichlarda tashxis qilinadi, bu esa davolash samaradorligini pasaytiradi va o‘lim ko‘rsatkichlarini oshiradi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, har yili dunyo bo‘yicha 300 mingdan ortiq yangi tuxumdon saratoni holati qayd etiladi. Shu sababli o‘smalarni erta aniqlash va ularning biologik xususiyatlarini baholash imkonini beruvchi zamonaviy diagnostik usullarning ahamiyati ortib bormoqda. Magnit-rezonans tomografiya yuqori kontrast aniqligi va yumshoq to‘qimalarni batafsil tasvirlash imkoniyati tufayli tuxumdon patologiyalarini baholashda muhim o‘rin egallaydi.

Tadqiqot maqsadi:

Tuxumdonning xavfli va xavfsiz o‘smalarini differensial tashxislashda MRT tekshiruvining imkoniyatlarini hamda asosiy radiologik mezonlarini aniqlash.

Material va metodlar

Tadqiqot Respublika ixtisoslashtirilgan radiologiya va onkologiya ilmiy-amaliy markazining 2024–2025-yillardagi arxiv ma’lumotlari asosida retrospektiv tarzda amalga oshirildi. Tadqiqotga tuxumdon patologiyasi aniqlangan 75 nafar bemor kiritildi. Ulardan 42 nafarida yaxshi sifatli, 33 nafarida esa xavfli o‘smalar aniqlangan.

Barcha bemorlarning kasallik tarixlari, laborator ko‘rsatkichlari hamda MRT tekshiruv natijalari tahlil qilindi. MRT tekshiruvlari 1,5 Teslalik SIEMENS apparatida standart



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

diagnostik protokollar asosida bajarilgan. Olingan natijalar gistologik tekshiruv ma’lumotlari bilan qiyoslandi.

Natijalar va muhokama:

Gistologik tekshiruvlar natijasiga ko‘ra, yaxshi sifatli hosilalar orasida seroz sistoadenomalar 40% bilan yetakchi o‘rinni egalladi. Xavfli o‘smalar tarkibida esa seroz adenokarsinomalar 73% ni tashkil etdi.

MRT tasvirlari va laborator ko‘rsatkichlarning qiyosiy tahlili tuxumdon o‘smalarini differensial tashxislashda muhim bo‘lgan bir qator mezonlarni aniqlash imkonini berdi. CA-125 onkomarkeri miqdori xavfli o‘smalar guruhida 76% holatda me’yordan yuqori bo‘lgan. Yaxshi sifatli hosilalar guruhida esa ushbu ko‘rsatkich faqat 26,7% bemorlarda qayd etilgan.

Morfologik belgilar ichida hosila devorining 3 mm dan ortiq qalinlashishi hamda konturlarning noaniqligi malign jarayonlarga xos ekanligi aniqlandi. Ushbu belgilar xavfli o‘smalarda mos ravishda 82% va 77% hollarda uchradi. Yaxshi sifatli kistalarda esa konturlar aniq va tekis bo‘lib qoldi.

Strukturaviy murakkablik ham malignlikning muhim ko‘rsatkichi sifatida namoyon bo‘ldi. Ichki devorlar mavjudligi 76% hollarda, papillyar o‘siqlar esa 52% hollarda xavfli o‘smalarda kuzatildi.

Ekstragenital belgilar orasida assit va regional limfadenopatiya alohida ahamiyat kasb etdi. Assit 64% bemorda, limfadenopatiya esa 79% bemorda qayd etildi. Uzoq metastazlar faqat xavfli o‘smalar guruhida aniqlanib, ularning uchrash chastotasi 57,6% ni tashkil etdi.

Shuningdek, ikki tomonlama tuxumdon zararlanishi malign o‘smalarda 48% hollarda aniqlanib, yaxshi sifatli hosilalarga nisbatan deyarli ikki baravar ko‘p uchrashi kuzatildi. Olingan natijalar MRT tekshiruvining nafaqat o‘smaning anatomik xususiyatlarini, balki uning biologik agressivligi va tarqalish darajasini baholash imkonini berishini



“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026

ko‘rsatadi.

Xulosa:

Magnit-rezonans tomografiya tuxumdon o‘smalarini differensial tashxislashda yuqori diagnostik ahamiyatga ega bo‘lgan zamonaviy tasviriy tekshiruv usuli hisoblanadi. MRT yordamida o‘smaning ichki tuzilishi, devorlarining holati, papillyar vegetatsiyalar, assit, limfa tugunlari va metastatik o‘zgarishlarni aniqlash mumkin. Tadqiqot natijalari MRTning tuxumdon saratonini erta bosqichlarda aniqlash, malignlik darajasini baholash hamda optimal davolash taktikasini tanlashda muhim rol o‘ynashini tasdiqladi

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduqodirov A.A., Ismoilov Sh.I. **Onkologiya**. — Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi Tibbiyot nashriyoti, 2020. — 412 b.
2. Karimov U.K., Raximova M.N. **Ayollar reproduktiv tizimi kasalliklarining nur tashxisi**. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. — 268 b.
3. Xolmatov B.Sh., Yo‘ldosheva D.R. **Magnit-rezonans tomografiya asoslari va klinik qo‘llanilishi**. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. — 320 b.
4. Abdullayeva S.T., Mamatqulov O.X. Tuxumdon o‘smalarining MRT belgilari va differensial tashxisi // **Tibbiyot axborotnomasi**. — Toshkent, 2022. — №4. — B. 45–49.
5. Qodirov J.B., Saidova N.A. **Ginekologik onkologiyada zamonaviy tashxis usullari**. — Toshkent: Ilm Ziyoyi, 2023. — 198 b.
6. Nurmatov A.R., To‘xtayeva L.S. Tuxumdon saratonini erta aniqlashda nur tashxis usullarining ahamiyati // **O‘zbekiston tibbiyot jurnali**. — 2021. — №6. — B. 32–36.